



**NUTQI RIVOJLANMAGAN MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA
NUTQIY MULOQOT VOSITALARINI SHAKLLANTIRISHDA DIDAKTIK
O‘YINLARNING TUTGAN O‘RNI**

Komilova Umida To‘ra qizi

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti

Maxsus pedagogika yo‘nalishi 1-kurs magistranti

Annotatsiya Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi nutqi rivojlanmagan bolalarda nutqiy muloqot vositalarini shakllantirishda didaktik o‘yinlarning o‘rni hamda ulardan maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq o‘stirish jarayonida samarali foydalanish usullari yoritib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Bolalar, didaktik, ijtimoiy, muloqot, maktabgacha yoshdagi bolalar, nutq, rivojlanishi, rivojlantiradi, so‘z boyligi, tarbiyachi, o‘yin.

Аннотация В данной статье рассматривается роль дидактических игр в формировании речевых средств общения у детей дошкольного возраста, не имеющих развившейся речи, а также методы эффективного использования этих игр в процессе развития речи у детей дошкольного возраста.

Ключевые слова: Дети, дидактический, социальный, общение, дети дошкольного возраста, речь, развитие, развивает, словарный запас, воспитатель, игра.

Abstract This article discusses the role of didactic games in the formation of speech communication tools in preschool children with underdeveloped speech, as well as the methods for effectively using these games in the process of speech development in preschool children.

Keywords: Children, didactic, social, communication, preschool children, speech, development, develops, vocabulary, educator, play.

KIRISH. Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqning rivojlanishi murakkab jarayon hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqning rivojlanishidagi kechikishlar bu bolalarning ijtimoiy faoliyatga ta'sir qiladigan jiddiy muammolardan biridir. Nutq rivojlanishi kechikkan bolalar o‘z fikrlarini ifodalashda qiyinchiliklarga duch keladilar, bu esa ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini pasaytirishi, ijtimoiy munosabatlarni o‘rnatishda va ta'lim jarayonida muammolarni yuzaga keltirishi mumkin. Shu sababli, bolalarda nutqiy muloqot vositalarini shakllantirish juda muhimdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Nutqning rivojlanishi, bolalar uchun o‘qish va yozish kabi muhim ko‘nikmalarni o‘zlashtirishga asos bo‘lib, bu jarayonda nutqiy

muloqat vositalari katta ahamiyatga ega. Nutqi rivojlanmagan bolalarda nutqiy muloqat vositalarini shakllantirish uchun esa eng samarali vosita didaktik o‘yinlardir. Ushbu maqolada, didaktik o‘yinlarning nutqiy muloqatni rivojlantirishdagi ahamiyati va ularni qanday qo‘llash kerakligi ko‘rib chiqiladi. Nutqi rivojlanmagan bolalarda nutqiy muloqotning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko‘rsatuvchi omillar ko‘p, jumladan, tilni o‘zlashtirishning sekinlashuvi, so‘z boyligining pastligi va kommunikativ qobiliyatlarning sustligi. Shu sababli, maktabgacha yoshda bolaning nutqini rivojlantirish va uning nutqiy muloqot vositalarini shakllantirish uchun didaktik o‘yinlar katta ahamiyat kasb etadi.

Didaktik o‘yinlar, o‘qituvchini bolalarga yaqinlashtiradi, o‘qituvchi bolalar nazarida tarbiyachigina emas, balki chinakam do‘stga aylanadi. Bu hol o‘quvchilarning yotsirash hollariga ham barham beradi. Didaktik o‘yinlar, bolaning o‘rganish jarayonini qiziqarli va samarali qilishda eng samarali vosita hisoblanadi. O‘yinlar yordamida bolalar nafaqat yangi bilimlarni o‘rganadilar, balki nutqiy muloqotning asosiy elementlarini – so‘zlashuv, suhbat qurish, so‘zlarni to‘g‘ri ishlatish va boshqalarga o‘z fikrlarini aniq etkazish kabi ko‘nikmalarni ham rivojlantiradilar. O‘yinlar bolalarni bir-biriga savollar berishga, javoblar olishga undaydi. Bu o‘z navbatida bolalarning muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi va ijtimoiy o‘zaro munosabatlarni yaxshilaydi. Darslarda o‘quvchilar yoshiga, tabiatiga mos bo‘lgan didaktik o‘yinlar o‘tkazilishi dars jarayonining samarali o‘tishi uchun xizmat qiladi.

Lev Vygotskiyning **“Nutqning rivojlanishi, insonning ong va tafakkurining rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liqdir”**, - degan fikri, uning **sotsial rivojlanish nazariyasi** doirasida nutq va tafakkurning o‘zaro bog‘liqligini ta’kidlaydi, nutq bolaning ijtimoiy muloqot jarayonida rivojlanadi va uning ong, tafakkur va fikrlash jarayonlarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Vygotskiy fikriga ko‘ra, nutq o‘rganish va rivojlanishning asosiy shakli — bu ijtimoiy aloqadir.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Didaktik o‘yinlar, bolalarga o‘zaro muloqotda bo‘lish, boshqalar bilan fikr almashish, muammolarni hal qilish orqali nutqni rivojlantirish imkonini beradi.

“Til va nutq” markazi uchun didaktik o‘yinlar. Bolalar hayotda ko‘rgan, ularga tanish bolgan buyumlar, narsa va hodisalarni kuzatish orqali ularni suhbatga o‘rgatish. Bolalar turli mavzular yuzasidan o‘tkazgan suhbatlarda hosil qilgan tushunchalarini, taassurotlarini so‘z vositasida boshqalarga bildiradilar.[5]

“Men va mening bog‘cham mening guruhimdagi jihozlar” [1]

Ta’limiy: tarbiyalanuvchilarning so‘z boyligini oshirish, ularni ijodiy fikrlashga o‘rgatish;

Rivojlantiruvchi: bolalarning tasavvur qilish va fikrlashlarini rivojlantirish;

Tarbiyaviy: jamoa bo‘lib ishlash ko‘nikmasini rivojlantirish.

Kerakli jihozlar: AKT, o‘yinchoqlar, o‘yinchoq idishlar to‘plami. Ta’limiy faoliyatning borishi

Tarbiyachi: Assalomu alaykum, mening quvnoq va qiziquvchan bolajonlarim! Bugun sizlar bilan xonamizdagi jihozlar haqida suhbatlashamiz. Qani, kim aytadi, xonamizda nimalar bor?

1-bola: - Xonamizda shkaf, kitob javoni, qo‘g‘irchoqlar, idish-tovoqlar, koptoklar bor.

2-bola: - Yana gilam, stol-stul, kartochkalar, turli o‘yinchoqlar, karavotlar bor.

3-bola: - Xonamizda parda, televizor, koptok, o‘yinchoq mashinalar, gullar ham bor.

Tarbiyachi: - Bolajonlar, kelinglar, sizlar bilan o‘yin o‘ynaymiz. Har biringiz qo‘lingizga shkafdan birorta buyum olasiz va aynan o‘sha buyum qachon va qanday ishlatilishini aytib berasiz.

4-bola: - Mening qo‘limda cho‘mich bor. Cho‘michni oyim ovqat suzganlarida ishlatadilar.

5-bola: Mening qo‘limda o‘yinchoq mashina bor. Dadam mashinada bizni bog‘chaga olib keladilar.

6-bola: Mening qo‘limda - kitob. Oyim bilan har kuni kitoblardagi rasmlarni tomosha qilamiz.

7-bola: - Mening qo‘limda esa qoshiq, uning yordamida ovqat yeymiz.

8-bola: Mening qo‘limda piyola, unga choy, sharbat quyib ichamiz.

9-bola: Mening qo‘limda qo‘g‘irchoq, men har kuni qo‘g‘irchoq o‘ynayman.

Tarbiyachi: Bolajonlar, biz xonamizdagi har bir jihozdan foydalanamiz. Shuning uchun ularni asrab-avaylab ishlatishimiz zarur. Masalan, yumshoq ayiqchaning oyog‘ini uzib yuborsangiz, sizdan keyin bog‘chaga keladigan ukalaringiz o‘ynolmay qolishadi. Idishlar jamlanmasini ham bir-biriga urmasdan ish -latishimiz zarur, toki narsa va buyumlar sizdan keyin boshqa bolalarga xizmat qilsin. Bolalar, bog‘chamizni qanday avaylashimiz mumkin, qani, kim aytadi?

10-bola: - Xonalarni ozoda saqlasak, uni avaylagan bo‘lamiz.

11-bola: O‘yinchoqlarni o‘ynab bo‘lib joy-joyiga qo‘ysak, ularni asragan bo‘lamiz.

12-bola: Hovlidagi gullarni uzmasak, ularga suv quyib tursak, bog‘chamiz chiroyli bo‘ladi.

Tarbiyachi: To‘ppa-to‘g‘ri, bolajonlar, biz uyimizni qanchalik yaxshi ko‘rsak, bog‘chamizni ham xuddi shunday avaylashimiz zarur. Chunki u yerda o‘zimiz vaqtimizni o‘tkazamiz, o‘yinlar o‘ynaymiz. Hozir sizlarga Quдрat Hikmat qalamiga mansub “Bog‘chamdagi bog‘cham” nomli she‘rni aytib beraman, sizlar esa diqqatingizni monitorga qarating. Tasvirda sizga o‘xshagan bir bola she‘rda ifodalangan ishlarni bajarayotganini ko‘rasiz.

“Bog‘chamdagi bog‘cham”

Quдрat Hikmat Hovuzchadan zing‘illab,

Suvni tashib bog‘chamga,

Quydim bultur o‘tqazgan,

Qandak o‘rik, olchamga.

Undan keyin oq luchchak
Shaftoliga quydim suv.
Tupini sal silkitsang,
Pishganlari tushar duv.
Har ko‘ksulton zoldirdek
Rang keltirib yetilar
Shoxlar otib hammasi
Quyoshjonga intilar.

Tarbiyachi: - Bolalar, endi sizlar bilan badantarbiya daqiqasini o‘tkazamiz. Men she’r aytib qo‘lim bilan xatti-harakatlarni ko‘rsataman, sizlar esa men bajarayotgan harakatlarni takrorlaysiz. Quyvon kabi sakraymiz, (Qo‘llar ko‘krak ustiga qo‘yili, barmoqlaryarimyopiladi.) O‘ngga, chapga qaraymiz. (O‘ng va chapga qaraladi.) Agar ehtiyot bo‘lmasak, {Qo‘llar tushiriladi.) Bo‘riga yem bo‘lamiz. (Qo‘llar orqaga qilib o‘zlarini quchoqlaydilar.) Tarbiyachi: - Bolajonlar, endi mana bu savollarga javob beringlar-chi. Nima uchun bog‘chamizni ozoda tutishimiz kerak? Uyimizni toza saqlash uchun nimalar qilishimiz kerak? Guruhimizni yanada chiroyliroq bo‘lishi uchun qaysi jihozlarning joyini o‘zgartirsak bo‘ladi? »

“Qo‘g‘irchoqni uxlatamiz” o‘yini[2] Maqsad: Tarbiyalanuvchilarning eshitish qobiliyatini rivojlantirish, ulaming so‘z boyligini oshirish. O‘yin jarayoni: Tarbiyachi qo‘g‘irchoqchani aravachaga soladi va bolalardan uni uxlatish uchun qanday so‘zlar aytish kerakligini so‘raydi. Har bir bola o‘zicha qo‘g‘irchoqni uxlatish uchun gaplar aytadi. Qo‘g‘irchoqcha uxlaganidan keyin esa tarbiyachi endi pastroq ovozda gapirish kerakligini, baland ovoz qo‘g‘irchoqni uyg‘otib yuborishi mumkinligini tushuntiradi. Bolalar bilan past ovozda gaplashadi, qo‘g‘irchoqcha uyg‘onganidan keyin esa ovozni balandroq qilib gapirish mumkin bo‘ladi.

“Barglar” o‘yini. Maqsad: Tarbiyalanuvchilarga to‘g‘ri nafas olishni o‘rgatish, nafas gimnastikasi bilan shug‘ullantirish. O‘yin jarayoni: Tarbiyachi stol ustiga turli rangdagi barglarni qo‘yadi. Qizil, sariq, zarg‘aldoq rangli barglar daraxtdan yerga tushgan. Shamol esgan va ularni daraxt tanasidan judo qilgan. Kelinglar, biz hozir o‘zimizni shamol deb tasavvur qilamiz va barglarni puflaymiz. Pedagog va bolalar barglarni yerga tushgunicha puflaydilar. Ularning to‘g‘ri nafas chiqarishini pedagog kuzatib boradi.

“Atrofimizdagi tovushlar” o‘yini. Maqsad: Bolalarga A, O, U harflarini to‘g‘ri talaffuz qilishni o‘rgatish. O‘yin jarayoni: Pedagog bolalarga atrofimizda turli ovozlarni borligini va bu gal ayrim tovushlarni birgalikda talaffuz qilishlarini aytadi. Bolalar, chaqaloq yig‘laganida qanday ovoz chiqaradi? A-a-a-a, qaytaramiz a-a-a-a. Ayiqchani tishi og‘risa u qanday ovoz chiqaradi? O-o-o-o, o-o-o-o. Samolyot osmonda uchayotganida esa u-u-u-u degan ovoz eshitiladi. Bolajonlar qani endi u-u-u-u deb qaytaramiz. Pedagog bolalarning tovushni imkon qadar cho‘zibroq talaffuz qilishlariga e’tibor beradi.

“Soat” o‘yini. Maqsad: Bolalarning eshitish qobiliyatlarini rivojlantirish, ularda ijodkorlik qobiliyatini o‘stirish O‘yin jarayoni: Pedagog bolalardan soat millari qanday ovoz

chiqarishini so'raydi. Bolalar esa ehiq-chiq, tiq-tiq deb o'zlari eshitgan ovozni talaffuz qilib beradilar. Uy sharoitida ona va bola uchun didaktik nutq o'stiruvchi o'yinlar bolalar bilan muloqotni rivojlantirishda juda samarali vosita bo'lishi mumkin. Bunday o'yinlar bolaning nutqiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlab, uning so'z boyligini kengaytirishga, talaffuzini yaxshilashga va o'z fikrlarini aniq ifodalashga yordam beradi.

“Rasmdagilarni nomini ayt” o‘yini [3] Kerakli rasmlar: Telefon, soat, qush, varak, qoshiq, finjon, to‘nog‘ich, qalam ochgich, pichoq, velosiped, mashina, sham, chiroq, lampa, qaychi. To‘g‘ri javob berishi uchun unga yordamlashing. Savollarni quyidagicha davom ettirishingiz mumkin:

- Qaysi birida sho‘rva ichamiz?
- Qaysi birida qalam uchi ochiladi?
- Qaysi biri gugurtsiz yonadi?
- Qaysi biri ipsiz havoda uchadi?
- Qaysi biri benzin bilan yuradi?
- Qaysi biri bilan qog‘oz kesamiz?

Savollaringizni shunga o‘xshash tarzda davom ettirishingiz mumkin. Farzandizngiz to‘g‘ri javob bergach, rasmni qalamdan dumaloq qilib belgilab qo‘ying. Shu tarzda qaysi rasm qolganini ko‘radi va e‘tiborini qolgan rasmlarga qaratadi. Bola nutqini o‘rgangan taniqli tadqiqotchi olim M.M.Koltsov qadimdan qo‘l barmoqlarning harakatlarini rivojlantirish tarixidan boshlab qo‘l harakati nutq bilan bog‘liqligini alohida ta‘kidlab o‘tgan. Bolani yoshligidan boshlab mayda matorikasini rivojlantirish juida foydali ekanligini ajdodlarimizning qarashlaridan ham bilishimiz mumkin. Shuning uchun ham barmoqlarni nutq a‘zosi deb bilamiz. Mayda qo‘l motorikasi barmoqlar mashqini bajarish, bolaningf aol nutqini rivojlantirishga ijobiy ta’sir kursatadi. Olimlarning elektrofiziologik tadqiqotlarida barmoqlarini impulsi asosida nutq zonasi shakillanishi qayd etilgan. I.P.Pavlovnutqning rivojlanishida taktil sezgining katta ahamiyatga ega ekanligi tug‘risida fikr bildiradi.[4]

Erta tongda[4]

Tong saxarda qizarib,
Quyosh chiqdi charaqlab.
Barmoqlar uyg‘ondilar,
Kiyindilar bolalar.
Ura! - barmoqlar turdi,
Nonushta vaqti keldi.

Bolani kiyintirish va tugmalarni taqishga o‘rgatish uchun ushbu matal aytiladi. Bolani bir necha marta mushitni qisib-ochish, chapak chalishni taklif qiling. “Endi esa barmoqchalar senga yordam berishga tayyor”, deb ayting!

Chapak chalish

Chapak, chapak chalamiz, Katta odam bilan bolalar birgalikda chapak chaladilar.

Xursand bulib sakraymiz. Barmoqchalar yordamida sakrash xolatini ko‘rsa- tib berish lozim.

Barmoqlar yordamida yurish xolati.

Ikkala qo‘l barmoqchalari yordamida non yasash.

Ikkala qo‘l yordamida dasturxon yozilib, uni silab tekkislash xolatini kursatib berish.

Katta odam bolani quchoqlab boshini silaydi.

Buvijonga boramiz,

Shirmoy kulcha yopamiz.

Yoziladi dasturxon,

Buvijonim mexribon

Kattalar bilan bolalar birgalikda bajarishi mumkin bo‘lgan bunday mashqlar yordamida bolaning kayfiyati va turli xil o‘yinlarga bo‘lgan qiziqishi ortib boradi.

XULOSA. Didaktik o‘yinlar bolalarda muloqotga bo‘lgan ishtiyoqni oshiradi va nutqni ijtimoiy o‘rganish orqali rivojlantirishga xizmat qiladi. Nutq rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashda, ayniqsa, nutqi rivojlanmagan bolalar uchun didaktik o‘yinlar faqat bilim berishning samarali vositasi emas, balki bolaning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga ham ta'sir qiladi. O‘yin faoliyatida bolalar uchun jarayon qizqarli hamda faollik bilan birga kechadi. Albatta o‘yin faoliyat turi tanlashda bolaning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olishimiz zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Nasiba ERXONOVA, Zuhra Ro‘ziyeva “Tarbiyachi kitobi. Nutq o‘stirish” qo‘llanmasi Toshkent «D A V R P R E S S» 2021 -yil.4,5,6 bet.

2. Nasiba ERXONOVA, Zuhra Ro‘ziyeva “Tarbiyachi kitobi Didaktik o‘yinlar” Toshkent “EVRIKA NASHRIYOT-MATBAA UYI”, 2022 -yil 4,5,6,7 bet.

3. Ali Chankirili “Men bilan o‘ynaysizmi, ona” Toshkent “Yangi asr avlodi “ 2022-yil 211,212 bet.

4. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan mashg‘ulot o‘tkazish uchun qo‘llanma R.SH. Shomaxmudova “Barmoqlar mashqi va nutq o‘stirish” "LESSON PRESS" 2018-yil 4,5 ,15 bet.

5. Sh.K. Xujamberdiyeva, N. J. Abdusamatova, A. Yu. Isabayeva. Bolalami nutqini o‘stirish. Darslik. “Fan ziyosi” nashriyoti, Toshkent-2023